

**JINOYATGA ELTUVCHI YUGUR-YUGURLAR YOXUD
MEHRIBONLIK UYIDAN FARZAND ASRAB OLISH TARTIBI**

Musaxonova Gulmira Sobirjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi va sud himoyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi

Musaxonovagulmira3@gmail.com

***Annotatsiya:** mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida mehribonlik uylaridan bolalarni farzandlikka olish tartibining huquqiy asoslari, ushbu tartibning murakkabligi hamda uning odam savdosi jinoyatlari bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida farzandlikka olish jarayonining qat'iy tartibga solinishi sabablari, ushbu tartibning asosiy maqsadi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, farzandlikka olish tartibini buzish holatlari jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi, noqonuniy farzandlikka olish va odam savdosi jinoyatlarining yuzaga kelish xavfini oshirishi ilmiy va huquqiy jihatdan yoritilgan. Maqolada milliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari va huquqiy manbalar asosida tahliliy xulosalar ishlab chiqilgan hamda bolalar huquqlarini samarali himoya qilish va odam savdosining oldini olish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** farzandlikka olish, mehribonlik uyi, odam savdosi, bola huquqlari, huquqiy tartib, jinoiy javobgarlik, bola manfaatlari.*

Jamiyat taraqqiyoti va inson huquqlarini himoya qilish tizimi darajasi, eng avvalo, bolalar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum

bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni oilaga joylashtirish va farzandlikka olish institutini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, farzandlikka olish tartibining murakkabligi, byurokratik to'siqlar va huquqiy talablarning qat'iyliги ayrim hollarda noqonuniy vositalar orqali bola asrab olishga urinishlarni, hatto odam savdosi kabi og'ir jinoyatlar sodir etilishiga zamin yaratmoqda. *Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi umumbashariy muammo bo'lib, har yili minglab bolalar noqonuniy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya va noqonuniy asrab olish qurboniga aylanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi insonning asosiy huquqlarini qo'pol ravishda buzadigan, global miqyosda millionlab odamlarni qamrab oluvchi jinoyat turi hisoblanadi. O'zbekistonda ham mazkur muammo dolzarbligicha qolmoqda. Odam savdosi, ayniqsa, bolalar bilan bog'liq noqonuniy operatsiyalar, asrab olish tartibidagi qiyinchiliklardan foydalanadigan jinoyatchilik guruhlarining faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, davlat tomonidan farzandlikka olish tartibi qat'iy normativ talablar asosida tartibga solingan.*

Farzandlikka olish instituti huquqiy jihatdan insonparvarlikning eng yuksak shakllaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali ota-ona mehridan mahrum bo'lgan bola oilaga, himoyaga va ijtimoiy barqarorlikka ega bo'ladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu insonparvar institut bilan bog'liq tartib-taomillar ko'pincha murakkab, uzoq davom etadigan va psixologik jihatdan ham og'ir jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, rasmiy tartib asosida bolani asrab olish uchun zarur hujjatlarning ko'pligi, tekshiruvlarning uzoq davom etishi, nomzodlarning qat'iy mezonlar asosida tanlanishi ayrim hollarda noqonuniy vositalardan foydalanishga

olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida huquqiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi, masalan, noqonuniy farzandlikka olish holatlarining ko'payishi, bolalar bilan bog'liq odam savdosi xavfining ortishi, bolalar huquqlarining buzilishi, jinoyatchilikning yangi shakllarining paydo bo'lishi kabilarni. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolalarni farzandlikka olish qat'iy tartib asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, bu tartib bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu tartib bolaning manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan. Ammo, aynan shu qat'iylik ayrim hollarda noqonuniy vositalarga murojaat qilish xavfini ham oshiradi, insonlar yugur-yugurlardan qochib doim oson yo'lini izlashadi, bu esa odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin .

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oila kodeksi va boshqa qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi. Masala shunchalik muhimki, Oila kodeksining alohida bir bobida farzandlikka olish mavzusi uchun ajratilgan. Unga ko'ra, farzandlikka olish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi, nomzodlar vasiylik va homiylik organlari tomonidan har tomonlama o'rganiladi va nomzodlarning moddiy, ma'naviy va psixologik holati tekshiriladi. Chuqur tekshiruvlar bolaning manfaatlarini ustuvor hisoblanishining yaqqol namunasidir. Shuningdek, farzandlikka olishni tartibga soluvchi normativ hujjatlarga muvofiq, nomzodlar bir necha mezonlarga mos bo'lishi kerak. Bular sudlangan bo'lmashligi, ruhiy kasalliklar yoki giyohvandlik bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lmashligi, bolani tarbiyalash uchun zarur sharoitlarga ega bo'lishi va ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi. Mazkur talablar bolaning

xavfsizligini ta'minlash va uning ekspluatatsiya qurboniga aylanishining oldini olishga qaratilgan.

Ammo ushbu talablar yuqoriligi, talab qilinayotgan hujjatlar farzandtalablarga **“og‘irlik”** qilishi natijasida ular oson yo‘lini izlab, o‘zlari bilib-bilmagan holda odam savdosiga qo‘l urish holatlari borgan sari ko‘paymoqda. Odam savdosi insonning sha’ni, qadr-qimmatini va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida baholanadi. Biroq, muammoning boshqa tomoni ham mavjud. Amaliyotda farzandlikka olishni istagan shaxslar bir necha oy, ba’zan esa bir necha yil davomida turli tekshiruvlardan o‘tishga majbur bo‘lmoqda. Ushbu jarayon bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi, nomzodlarning hujjatlarini yig‘ish, sog‘liq holati to‘g‘risida xulosa olish, yashash sharoitini tekshirish, psixologik va ijtimoiy baholash, sud qarorini kutish kabilar shular jumlasidandir. Mazkur jarayonning uzoq davom etishi ayrim hollarda insonlarda umidsizlik, tushkunlik va tizimga nisbatan ishonchsizlik hissini shakllantiradi. Inson psixologiyasi shunday tuzilganki, agar qonuniy yo‘l juda murakkab bo‘lsa, ayrim shaxslar noqonuniy yo‘llarga murojaat qilish ehtimoli ortadi. Bu esa o‘z navbatida, noqonuniy vositachilik va odam savdosi kabi jinoyatlarning rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. *Huquqiy paradoks* shundan iboratki, bolalarni himoya qilish maqsadida yaratilgan qat’iy tizim ayrim holatlarda noqonuniy **“alternativ tizim”**ning shakllanishiga ham bilvosita sabab bo‘lishi mumkin. Chunki talab mavjud bo‘lgan joyda, agar qonuniy taklif murakkab bo‘lsa, noqonuniy taklif paydo bo‘ladi. Odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarning asosiy sabablaridan biri aynan ijtimoiy talab va himoyasiz qatlamlarning mavjudligidir. Farzandlikka olish tartibining qat’iyligi, bir qarashda, **byurokratik to‘siq** sifatida ko‘rinishi mumkin, biroq ushbu

tartibning asosiy maqsadi bolalarni jinoyatchilik, ekspluatatsiya va odam savdosidan himoya qilishdir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, farzandlikka olish tartibi qat'iy nazorat qilinmagan mamlakatlarda bolalar bilan bog'liq noqonuniy operatsiyalar keng tarqalgan. Xususan, noqonuniy asrab olish holatlari odam savdosining eng xavfli shakllaridan biri hisoblanadi. Farzandlikka olish tartibining murakkabligi bir qancha sabablarga asoslanadi. Birinchidan, bolaning manfaatlarini maksimal darajada himoya qilish zarurati. ***Bola - huquqiy jihatdan eng himoyasiz toifa hisoblanadi.*** Shu sababli, davlat tomonidan har bir farzandlikka olish holati individual ravishda tekshiriladi. Bu esa bola **ekspluatatsiya** qilinishining oldini olishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, odam savdosining oldini olish masalasi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi global miqyosda eng daromadli jinoyat turlaridan biri bo'lib, bolalar ushbu jinoyatning asosiy qurbonlaridan biri hisoblanadi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra ***ICHKI ISHLAR ORGANLARI xabar berishicha O'zbekiston 2024 yil odam savdosi statistikasida ma'lumotlar xabar berishicha 219 nafar shaxsga nisbatan odam savdosi jinoyatini sodir etganlik bo'yicha qonuniy choralarni qo'llangan. Bu raqam mamlakat bo'yicha jinoyat statistikasi to'g'risida Senatda taqdim etilgan umumiy ma'lumotlarda keltirilgan. 2024-yil umumiy jinoyatlar kontekstida O'zbekiston bo'yicha jami 132 298 ta jinoyat qayd etilgan. Jinoyatlar soni har 100 ming aholi uchun taxminan 200 ta ga teng bo'lgan. Odam savdosi alohida ko'rsatkich sifatida katta sonli jinoyat sifatida e'lon qilinmagan bo'lsa-da, 219 nafar jinoyatchi aniqlanib, ularning harakati bo'yicha chora ko'rilgan. Bu ko'rsatkich jamiyatda odam savdosi bilan bog'liq huquqbuzarliklar hali ham mavjud ekanini anglatadi, ammo umumiy jinoyatlar statistikasi doirasida boshqa***

*toifalar (masalan, o'g'rilik yoki firibgarlik) bilan solishtirganda nisbat ancha past bo'lib qolmoqda". Bu nafaqat katta ko'rsatkichni ifodalaydi, balki O'zbekistonni dunyo hamjamiyatida rivojlanayotgan, kelajagi porloq davlat sifatida tanitish maqsadida qilinayotgan say-harakatlarning bir zunda chilparchin bo'layotganining nomoyondasidir. **Qonunchiligimizda ham bu jinoyat uchun javobgarlik aniq belgilab qo'yilgan, kimki odam savdosi bilan shug'ullansa, Jinoyat kodeksining 135-moddasiga asosan kvalifikatsiya qilinib, o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.** Xo'sh nega bunaqa vaziyat? Statistikalari nega salbiy? Agar farzandlikka olish tartibi bunchalik **qattiq** bo'lmaganida, balki odam savdosi ham bunchalar ildamlamasmi? Agar farzandlikka olish tartibi soddalashtirilsa va nazorat mexanizmlari kuchsiz bo'lsa, jinoyatchilar ushbu tizimdan noqonuniy foydalanishi mumkin. Uchinchi sabab sifatida aynan shuni, jinoyatlarning oldini olish mexanizmi sifatida huquqiy nazoratni aytishimiz mumkin. Nazorat qilinmagan holatlar sifatida bir qancha davlatlarni misol qilib, oqibatlarini izlasak, Nyu-York, **2018-yil 29-iyul-Butunjon odam savdosiga** qarshi kurash kuni arafasida UNICEF va odam savdosiga qarshi idoralararo muvofiqlashtirish guruhi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab odam savdosi qurbonlarining taxminan **28 foizi bolalardir. Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika, Markaziy Amerika va Karib dengizi** kabi mintaqalarda bolalar odam savdosi qurbonlarining yanada yuqori ulushini tashkil qiladi, mos ravishda **64 va 62** foizni tashkil qiladi. **UNICEF va ICAT odam savdosi** qurboniga aylangan bolalar soni hozirgi ma'lumotlarga qaraganda ko'proq deb hisoblashadi. Bugungi kunda xalqaro statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, odam savdosi jinoyatlarining yashirin ko'rsatkichi rasmiy statistikadan bir necha*

barobar yuqori bo'lishi mumkin. **UNODC (2022)** hisobotiga ko'ra, aniqlangan qurbonlar soni real holatning faqat ma'lum qismini tashkil etadi. Bolalar esa ushbu jinoyatning eng himoyasiz subyekti hisoblanadi. Ayniqsa, noqonuniy asrab olish bilan bog'liq sxemalar ko'pincha *“insonparvarlik”* niqobi ostida amalga oshiriladi.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, farzandlikka olish tizimini haddan tashqari soddalashtirish ham, ortiqcha murakkablashtirish ham xavf tug'dirishi aniqlangan. Masalan, ayrim davlatlarda **2000-yillar boshida** xalqaro asrab olish jarayonining sust nazorat qilinishi natijasida bolalarni noqonuniy olib chiqish holatlari keskin oshgan. Shundan so'ng ko'plab davlatlar farzandlikka olish bo'yicha nazorat mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lgan. Odam savdogarlaridan qo'rqib, o'z imkoniyatlari haqida ma'lumot yo'qligi, rasmiylarga ishonchsizlik, stigma qo'rquvi yoki hech qanday himoya choralarisiz va cheklangan moddiy yordamsiz qaytarib yuborilish ehtimoli tufayli kamdan-kam odamlar oldinga chiqadilar. Qochqin, migrant va ko'chirilgan bolalar, ayniqsa, odam savdosi xavfi ostida. Bolalar bilan bog'liq odam savdosi jinoyatlarida jinoyatchilar ko'pincha ota-onalarning og'ir ijtimoiy ahvoli, nazorat mexanizmlaridagi kamchiliklar, farzandlikka olish tizimidagi byurokratik murakkabliklar, insonlarning huquqiy savodxonligining pastligi kabi omillardan **oqilona** foydalanadi. Bu holatlar jinoyatchilar uchun imkoniyat yaratadi va ular noqonuniy vositachilik orqali bolalarni boshqa shaxslarga topshirish holatlarini amalga oshirishi mumkin. Aslida bolalar-huquqiy obyekt emas, balki huquqiy subyekt. Farzandlikka olish masalasini faqat huquqiy yoki ma'muriy masala sifatida ko'rish yetarli emas. Bu masala, avvalo, inson taqdiri bilan bog'liq. Mehribonlik uyida ulg'ayayotgan bola uchun oila bu shunchaki yashash joyi emas.

Bu uning xavfsizligi, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun zarur bo'lgan asosiy muhitdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhitda ulg'aygan bolalar mehribonlik muassasalarida ulg'aygan bolalarga nisbatan psixologik jihatdan barqarorroq, ijtimoiy moslashuvchanroq hamda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli kamroq bo'ladi. Bu esa farzandlikka olish institutining nafaqat individual, balki ijtimoiy xavfsizlik uchun ham muhim ekanligini ko'rsatadi. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi inson huquqlarining eng og'ir buzilishlaridan biri hisoblanadi va uning qurbonlari ko'pincha jamiyatning eng himoyasiz qatlamlaridan iborat bo'ladi. Bolalar bilan bog'liq holatlarda ushbu jinoyat yanada og'irroq baholanadi, chunki bola o'zini mustaqil himoya qila olmaydi. Muammoning eng og'riqli jihati shundaki, tizim va inson o'rtasidagi ziddiyat bartaraf etilmagan. Huquqiy tizim mukammal bo'lishi mumkin, biroq u insoniy ehtiyojlarni ham hisobga olishi zarur. Agar tizim haddan tashqari murakkab bo'lsa, u o'zining asosiy maqsadiga, bolani himoya qilishga qisman zid natijalarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu yerda eng muhim savol paydo bo'ladi. ***Qonun bolani himoya qilyaptimi yoki uni oilaga yetib borish imkoniyatini murakkablashtiryaptimi?*** Bu savolga javob oddiy emas. Chunki qonun bir vaqtning o'zida ikkita vazifani bajarishi kerak. Bir tomondan bolani himoya qilish shu bilan birga bolaga oila topish imkoniyatini yaratish. Ushbu savol farzandlikka olish institutining eng nozik va murakkab nuqtasini ochib beradi. Bir tomondan, davlatning asosiy vazifasi-bolani har qanday ekspluatatsiya, zo'ravonlik va noqonuniy harakatlardan himoya qilishdir. Ikkinchi tomondan esa, bola uchun eng tabiiy va sog'lom muhit - bu oila ekanligi

shubhasiz. Demak, muammo qonun mavjudligida emas, balki himoya va imkoniyat o'rtasidagi muvozanatda namoyon bo'ladi.

Yechim sifatida nima deya olamiz? Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaviy muhitga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi, balki jinoyatchilikning oldini olish, xususan, odam savdosi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etish yuzaki choralar bilan emas, balki chuqur institutsional, huquqiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish orqali mumkin. Avvalo, farzandlikka olish jarayonining institutsional samaradorligini oshirish zarur. Amaldagi tizimda mavjud bo'lgan ortiqcha byurokratik bosqichlar, takroriy tekshiruvlar va ma'lumot almashinuvidagi sekinlik fuqarolarning qonuniy tartib orqali farzandlikka olish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Bu esa ayrim hollarda noqonuniy vositalarga murojaat qilish ehtimolini oshiradi. Shu sababli, farzandlikka olish jarayonida ishtirok etuvchi davlat organlari o'rtasida yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, arizalarni ko'rib chiqish muddatlarini aniq belgilash va jarayonning shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish orqali inson omili bilan bog'liq xatoliklar va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish mumkin.

Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy vositachilik faoliyatiga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar ko'pincha ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlardan foydalanadi va huquqiy nazoratdagi bo'shliqlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qiladi. Shu sababli, farzandlikka olish bilan bog'liq barcha jarayonlar ustidan doimiy monitoring o'rnatish, shubhali

holatlarni tezkor aniqlash va bunday jinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta'minlash zarur. Bu nafaqat jinoyat sodir etgan shaxslarni jazolash, balki kelgusida shunga o'xshash jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Muammoning yana bir muhim jihati-fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan bog'liq. Ko'plab fuqarolar farzandlikka olishning qonuniy tartibi, talab etiladigan hujjatlar va jarayon bosqichlari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Natijada, ular norasmiy manbalarga murojaat qilishlari va firibgar shaxslar ta'siriga tushib qolishlari mumkin. Shu sababli, davlat organlari tomonidan ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy platformalar orqali aholiga farzandlikka olishning qonuniy tartibi haqida aniq, tushunarli va ochiq ma'lumotlar berib borilishi zarur. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining oshishi fuqarolarning noqonuniy harakatlarga jalb etilish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, bolalarni himoya qilish bilan shug'ullanuvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Vasiylik va homiylik organlari, bolalar muassasalari va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirish orqali har bir bolaning taqdiri individual ravishda ko'rib chiqilishi va uning manfaatlari ustuvorligini ta'minlash mumkin. Ayniqsa, bolani oilaga joylashtirishdan oldin va keyin monitoring mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. Bu bolaning yangi muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi va uning huquqlari buzilmasligini ta'minlash imkonini beradi. Mazkur muammoni hal etishda xalqaro hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Odam savdosi transmilliy jinoyat turi bo'lib, u ko'pincha davlatlar chegarasidan tashqarida faoliyat yurituvchi jinoiy tarmoqlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar, xususan, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti**,

UNICEF va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy tizimga joriy etish muhimdir. Xalqaro standartlarga mos keluvchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish bolalarni himoya qilish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, farzandlikka olish tizimini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda huquqiy tartibni soddalashtirish bilan bir qatorda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, institutsional samaradorlikni oshirish, aholining huquqiy savodxonligini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur. Faqatgina tizimli va muvozanatli yondashuv orqali bolalarni himoya qilish, ularning oilada yashash huquqini ta'minlash va odam savdosi bilan bog'liq xavflarni samarali kamaytirish mumkin.

Bugungi kunda ayrim onalarning og'ir ijtimoiy sharoit, qo'rquv, yolg'izlik yoki ma'naviy bosim sabab o'z chaqalog'ini tashlab ketayotgani haqidagi xabarlar jamiyat vijdonini larzaga soladi. Axlatxonalarda, hojatxonalarda yoki ko'cha chetida topilgan chaqaloq — bu shunchaki jinoyat statistikasi emas, balki ijtimoiy og'riqdir. Bu holat insonni savolga tutadi, qayerda uzilish yuz berdi — qonundami, tizimdami yoki mehrdami? Ana shunday fojiali manzara fonida G'afur G'ulom **“Yodgor” qissasida** mutlaqo teskari ruhiy manzarani tasvirlaydi. Asarda bola tashlab ketilmaydi u ona bag'riga olinadi. U rad etilmaydi qabul qilinadi. Yodgor og'ir sharoitlarda dunyoga kelgan bo'lsa-da, uni o'z tarbiyasiga olgan insonlar mehr va mas'uliyatni ustuvor qo'yadilar. Ular bolani yuk emas, omonat deb biladilar. Uning taqdiriga befarq qarashmaydi. Muallif shu orqali shuni anglatadi, jamiyatni qonun emas, avvalo insoniylik saqlab qoladi. Agar mehr mavjud bo'lsa, tashlab ketish bo'lmaydi. Agar mas'uliyat bo'lsa, savdo bo'lmaydi. G'afur

G'ulomning Sen yetim emassan she'ri ham ushbu masalamizga yanada urg'u beradi. Urush yillarida 10 an ziyod farzandlarni asrab olgan oilalarchi. Ularda qanaqa o'zgacha hissiyot bor ediki begona bo'lishiga qaramasdan o'z tu'gishgan farzandlari qatorida ularga ham mehr berganlar. Agar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'lsa, jinoyat ildiz otmaydi. Shu nuqtada maqolamiz boshidagi savolga qaytamiz.

Jinoyatga eltuvchi “yugur-yugurlar” qayerdan boshlanadi? U faqat farzandtalablarning noqonuniy yo'l izlashidan boshlanmaydi. U mehr yetishmagan, qo'llab-quvvatlash sust bo'lgan, ijtimoiy himoya zaiflashgan nuqtada boshlanadi. Bola savdosi -talab va taklif kesishgan joydagi jinoyatdir. Ammo *Yodgor timsoli* bizga boshqacha yo'l borligini ko'rsatadi, talabni ham, taklifni ham jinoyat emas, insoniylik hal qilishi mumkin. Agar jamiyat og'ir ahvoldagi onaga yordam bera olsa, u farzandini tashlamaydi. Agar farzandtalab qonuniy va shaffof tizimga ishonsa, u noqonuniy vositachiga murojaat qilmaydi. Agar bola ustuvor qadriyatga aylansa, u hech qachon savdo obyektiga aylanmaydi. Demak, masala faqat huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishda emas ma'naviy poydevorni mustahkamlashdadir.

“*Yodgor*” qissasidagi mehribon qahramonlar bizga shuni eslatadiki bolani jinoyatdan himoya qiladigan eng kuchli vosita qonun va insoniylikning uyg'unligidir. Shunday ekan, jinoyatga eltuvchi yugur-yugurlarni to'xtatish uchun biz bolani tashlab ketadigan emas, uni bag'riga bosadigan jamiyatni qurishimiz zarur. *Zero, har bir qutqarilgan bola bu oldi olingan jinoyatdir.* Har bir mehr bilan tarbiyalangan *Yodgor* esa jamiyatning ma'naviy yodgorligidir. Bola asrab olish tartibining qat'iyligi, bir tomondan, bolalarni himoya qilishning muhim mexanizmi bo'lsa, boshqa tomondan, uning murakkabligi noqonuniy vositalar va odam savdosi xavfini oshiruvchi omilga aylanishi mumkin. Shu sababli davlat

tomonidan ushbu jarayonni takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarni optimallashtirish va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish zamonaviy huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi: 30.04.1998 y. (oxirgi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan). – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni: 07.01.2008 y., O‘RQ–139-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.12.2024 y. 893-son qarori “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (Convention on the Rights of the Child): 20.11.1989 y. – Nyu-York.
6. United Nations General Assembly. Guidelines for the Alternative Care of Children. – New York: UN, 2010.
7. UNICEF. The State of the World’s Children: Child Protection. – New York: UNICEF, 2019.
8. Cantwell N. The Best Interests of the Child in Alternative Care. – New York: UNICEF, 2014.



9. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Global Report on Trafficking in Persons. – Vienna: UNODC, 2022.
10. International Labour Organization (ILO). Global Estimates of Modern Slavery. – Geneva: ILO, 2022.